



ONLAYN ARBITRAJ JARAYONINI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Bahodirova Sitora

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi

“Xalaro tijorat huquqi” yo‘nalishi talabasi

Gmail: bsitoragulomovna@gmail.com

Tel: +998933141841

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10208444>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-November 2023 yil

Ma'qullandi: 24- November 2023 yil

Nashr qilindi: 27-November 2023 yil

KEY WORDS

ADR, ODR, arbitraj, texnologiya, sun'iy intellekt, kommunikatsiya.

ABSTRACT

Bugungi zamonaviy dunyoda texnologiyalar, onlayn kommunikatsiya vositalari jamiyat hayotida tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. O‘z navbatida texnologiyalar nizolarni muqobil hal etish (Alternative Dispute Resolution – ADR)ning globallashuviga olib kelmoqda. Texnologiyalardan milliy miqyosda ham, xalqaro darajada ham axborot va bilimlarni tarqatish vositasi sifatida foydalaniladi. Nizolarni muqobil hal qilish jarayonida, shu jumladan onlayn arbitraj jarayonlarida elektron vositalar, onlayn platformalar, shuningdek, sud dasturlaridagi ishlarni avtomatlashtirilgan tarzda boshqaradigan vositalar mavjud. Olingan nazariy ma'lumotlarning tahlili asosida ushbu maqolada onlayn arbitrajning o'ziga xos jihatlari, undagi afzalliklar va kamchiliklarni ilmiy-nazariy tahlil qilish maqsadiga muvofiq..

Onlayn arbitraj (ODR) nizolarni onlayn hal qilishning asosiy tarkibiy qismidir. U tomonlarga o‘zlarining shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadigan har qanday masalani onlayn tarzda hal qilish imkonini beradi. Onlayn ya’ni elektron arbitraj birinchi navbatda biznesdan biznesga (B2B) transchegaraviy elektron tijorat ziddiyatlarini hal qilish uchun ishlatiladi, lekin u an’anaviy transchegaraviy tijorat nizolarini hal qilish uchun ham ishlatilishi mumkin. Arbitraj kelishuvi va arbitraj jarayoni ham elektron arbitrajda onlayn tarzda yakunlanadi. Ba’zi tadqiqodchilar arbitraj kelishuvini ham o‘z ichiga olgan elektron tijorat shartnomalarida, elektron hujjat yetarlicha aniq bo‘lsa va keyinchalik ham bu hujjatni o‘qiy olish imkoni mavjud bo‘lsa, uning qanday shaklda bo‘lishini muhim emas deb hisoblaydilar.

Arbitraj – bu bir qator rasmiyatchilik va protsessual qoidalarni o‘z ichiga olgan xususiy sudlovning bir turi. Bu kuchliroq va rasmiy normalar bilan tartibga solinadigan muqobil nizolarni hal qilishning bir turi bo‘lib, jarayonning tuzilishi, narxi, qaror qabul qilish kuchi va boshqa ko‘plab omillar nuqtai nazaridan mediatsiyadan sezilarli farq qiladi. Texnologiya va internetning rivojlanishi ushbu muqobil nizolarni hal qilish tartib-qoidalariga yangicha ko‘rinish berdi. Onlayn arbitraj nizolarni onlayn hal qilish usuli bo‘lib, unda nizolar

tomonlar bilan jismonan mavjud bo'lishdan ko'ra virtual platformalar yordamida ko'rib chiqiladi. 1990-yillarda nizolarni hal qilish jarayoni sifatida ODR tushunchasi o'rnatildi. U ikki formatda, ya'ni kiber sohadagi onlayn muammolarni hal qilish va haqiqiy dunyoda paydo bo'ladigan, ammo virtual tarzda hal qilinadigan muammolarni hal qilishda amalga oshirilishi mumkin. Tomonlar ushbu kelishmovchiliklarni onlayn nizolarni hal qilish xizmatlarini taklif qiluvchi ko'plab internet saytlari yordamida hal qiladilar. Elektron arbitrajning joriy etilishi elektron sud tizimi bilan solishtirish mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga kamroq darajada bo'lsada duch keldi, chunki u ko'proq protsessual va texnologik moslashuvchanlikka ega bo'lgan xususiy protseduradir. Sud, ekspertlar, guvohlar, advokatlar va tomonlar onlayn aloqa vositalaridan, ariza berishdan, hujjatlarni taqdim etishdan va hokazolardan foydalanishlari kerak va ular buni to'liq himoyalangan texnik muhitda qilishlari kerak.

ASOSIY QISM

Onlayn arbitraj jarayonini amalga oshirishning ilmiy-nazariy tahlili

Elektron arbitraj sudlarining xulosalari va arbitraj kelishuvlarining qonuniyligi masalalari ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki onlayn arbitraj muhokamasi qatnashchilari ko'pchilik texnik tizimlarning samaradorligi va ishonchligi, elektron arbitraj platformasi provayderlarining xolisligi va taraflar tomonidan tizimlardan foydalanishdagi nomutanosibliklardan xavotirda. Shunga qaramay, murakkab bo'lmagan ishlarda elektron arbitrajdan foydalanishga qaratilgan global tendentsiya mavjud va bu model, shubhasiz, kelajakda elektron sudlovning o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 1996-yilda Milliy Avtomatlashtirilgan Axborot Tadqiqot Markazi (NCAIR) va AQShning Kibermakonlik Huquq Instituti elektron arbitrajni joriy etish bo'yicha birinchi loyihani amalga oshirdi. (CLI). Keyingi platformalar, masalan, CyberTribunal, UNCITRAL va ICC kabilar ishni hal qilish uchun protsessual me'yorlardan foydalangan va bir nechta ishlarni muvaffaqiyatli hal qilgan. Asta-sekin ko'plab elektron arbitraj platformalari paydo bo'lmoqda va faoliyat ko'rsatmoqda, masalan, Chexiya arbitraj sudi platformasi, AQSh kichik da'volar sudi va boshqalar.

Xalqaro Tijorat Arbitraji sohasida onlayn arbitraj tizimi 2002-yili Buyuk Britaniyada joriy etilgan. Buyuk Britaniyada onlayn arbitraj jarayoni dastlab kam ahamiyatli kichik biznesga oid bo'lgan kichik da'volarni ko'rishdan boshlangan. Masalan, qarzdor bo'lgan shaxsga qarshi harakatlar va qarzdor shaxs tomonidan rad etilgan taqdirda, qarzni to'lashi uchun da'volar ko'rinishida. Bugungi kunda ham Buyuk Britaniyada onlayn arbitraj va elektron arbitrluk xizmati nizolarni elektron hal qilishdagi muvaffaqiyatlardan biri sifatida qaraladi¹.

ODR tushunchasi 2016-yilda "Nizolarni onlayn hal qilish bo'yicha texnik reglament"ga muvofiq fuqarolik muomalasiga kiritilgan. Shu bilan birga, ushbu hujjatda nizolarni onlayn hal qilish vositachilik, muzokaralar yoki arbitraj (arbitraj) yoki ushbu uchta yondashuvning kombinatsiyasidan iborat ekanligi qayd etilgan.

Umumiy qabul qilingan hujjatga ko'ra, ODR jarayoni uch bosqichni o'z ichiga olishi kerak.

- 1-bosqich - OCR platformasidan foydalangan holda tomonlar o'rtasida olib boriladigan muzokaralar bosqichi.

¹ <https://blog.jusmundi.com/the-emergence-of-e-mediation-and-e-arbitration/>

- 2-bosqich - Fasilitatsiya bo'lib, bunda tomonlar bilan konsensusga erishish uchun o'zaro aloqada bo'lgan neytral shaxs tayinlanadi.

- 3-bosqich, bu yakuniy bosqich bo'lib, unda neytral shaxs tomonidan taqdim etilgan DSB ma'muri tomonlarni yakuniy qoidalar va shakllar haqida xabardor qiladi.

Odatda, turli tashkilotlar onlayn (elektron) arbitrajni yoki hech bo'lmaganda asosan elektron bo'lgan arbitraj protsedurasini taklif qilishadi. Shuning uchun ham elektron tijorat bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun onlayn vositachilik (elektron vositachilik) va elektron arbitraj (e-arbitraj) usullarini taqdim etuvchi tashkilot va kompaniyalar bugungi kunga kelib sezilarli darajada oshdi². Ushbu muassasalarning ba'zilar birinchi navbatda asosiy internet domen sayt nomlari huquqlari va intellektual mulk kabi elektron tijorat bilan bog'liq masalalarni hal qilishadi. Bu shunday afzallikni keltirib chiqarmoqdaki, onlayn arbitraj sud jarayoni xarajatlarini imkon qadar minimallashtirish imkonini berishi o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, onlayn arbitraj tizimi internet tizimidan foydalanishi kengaytiradi, nizoli masalalarni online hal etish hamda davlatlar orasidagi chegara(masofa) masalalarini ham qonun doirasida ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi tizim sifatida qaralishi mumkin hisoblanadi.

Yevropa hamjamiyatida bugungi kunda o'z boshqaruv faoliyatini yanada fuqarolar uchun qulayliklar yaratish maqsadida Yevropa Kengashida "elektron parlament", "elektron qonunchilik", "e-adliya", "elektron vositachilik", "elektron saylovlar", "elektron referendum", "elektron tashabbus", "elektron sud", "e-maslahatlar", "elektron arizalar", "elektron kompaniya", "elektron so'rov", "elektron sharh" va "sun'iy intellekt" shu maqsadlarda ko'plab AKT bilan uzviy bog'liq bo'lgan tizimlarni joriy etmoqda³

Shuningdek, onlayn arbitrajni tanlash afzalliklari shundan iboratki, ko'rilayotgan nizoni tezkor ko'rib chiqishda, vaqt va mablag'larni tejashda, ishni samarali ko'rib chiqish, 7/24 holatda ish faoliyatining mavjudligi va ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyati. Elektron Arbitraj jarayonidagi aniqlangan kamchiliklar unda taqdim etilgan dalillarning haqiqiyliigi va maxfiylik muammolari bilan bir qatorda elektron Arbitraj jarayonidagi uchun huquqiy sohadagi mavjud noaniqlik normalarining mavjudligi hisoblanadi.

Xalqaro Tijorat Arbitraji faoliyatini elektronlashtirishda *E-Arbitration-T* platformasi yaratilgan bo'lib, unda mavjud nizolarni hal qilish uchun ishonchli va muqobil tizimni taklif etadi. Ya'ni dastlab, oddiy arbitr xizmatidan foydalanish yoki elektron arbitr xizmatidan foydalanish, hamda arbitraj joyini qaysi joyda ko'rish kabi masalalar. Ushbu platforma hozirgi jahon biznes sektori talab qiladigan darajadagi yuqori tezlik va yuqori sifatni ta'minlaydigan elektron mexanizm sifatida ishlab chiqilgan. Arbitraj sohasida Elektron Arbitraj tizimi juda moslashuvchan vosita bo'lib, nizolarni hal qilish markazlariga tegishli ish masalasiga ko'ra, turli ishlarni ko'rishga moslashadigan onlayn xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, Evropa Kengashining pozitsiyasiga ko'ra, elektron sudlov, elektron arbitrajni tanlash barcha manfaatdor taraflar tomonidan odil sudlovni amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishda elektron aloqa va ma'lumotlar almashinuvi, shuningdek, sud ma'lumotlariga kirishni o'z ichiga oladi⁴

² <https://blog.jusmundi.com/the-emergence-of-e-mediation-and-e-arbitration/>

³ Recommendation CM/REC(2007)11 of the committee of ministers to member states on promoting Freedom of expression and information in the new information and communications environment.

⁴ http://www.coe.int/t/dgap/democracy/activities/ggis/cahde/2009/RecCM2009_1_and_Accomp_Docs/6647-0-ID8289-Recommendation%20on%20electronic%20democracy.pdf

Shuningdek, Gonkong xalqaro arbitraj⁵ markazining Elektron bitimlar arbitraj qoidalariga ko'ra, eshituv "videolink, telefon yoki elektron pochta orqali yoki boshqa elektron yoki kompyuter aloqasi orqali" o'tkazilishi mumkin, ammo agar taraflar kelishishsa yoki arbitr buni zarur deb topsa, shundan so'ng arbitraj jarayonining davomi arbitrajning ishtirokchi tomonlarining eshityshlari shaxsan ko'rishgan holda o'tkazishga ruxsat beradi, hamda odatiy arbitraj jarayonida o'tkazilishi mumkin hisoblandi.

Bundan murojaatchi hamda arbitrajga quyidagi huquqiy imkoniyatlar beriladi:

- Barcha fuqarolar va tashkilotlar uchun sud tizimiga kirishda qulaylik;
- Axborot olish imkoniyati;
- Elektron xujjat aylanishi;
- Elektron masofadan turib ish yuritish va xujjatlarni taqdim etish;
- Elektron ma'lumotlar;
- Sud ishlarining shaffofligi;
- Elektron konsultatsiya olish hamda berish.
- Masofaviy o'zaro ta'sir yurisdiksiya;
- Sud qarorlarining mavjud ma'lumotlar bazasi;
- Elektron arbitr sud qarorlarini xalqaro tan olish.

Ba'zi davlatlarning milliy qonunchiligiga ko'ra, arbitraj jarayoni va hakamlik sudyasini tayinlash to'g'risida bildirishnoma yuborish elektron aloqa vositalari orqali amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Masalan, "Angliya Arbitraji to'grisida"gi qonunga muvofiq, ishtirokchi tomonlar elektron arbitrajni tanlash yoki an'anaviy arbitrajni tanlash qarorini erkin tanlash imkoniyati yartilgan⁶.

Umuman olganda, elektron arbitraj sudini yuritish uchun zarur bo'lgan ko'plab toifalar va vositachilik tartiblari o'zgartirilib, alohida mustaqil kibermakonga aylantiriladi. Shunday qilib, internetda huquqiy yurisdiksiya hisoblanadi, masalan, onlayn nizo ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan domen, sayt yurisdiksiya va boshqa yurisdiksiya doirasidagi tashkilot deb hisoblashimiz mumkin hisoblanadi.

Onlayn arbitraj jarayoni an'anaviy arbitraj jarayonidan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Onlayn arbitraj mexanizmi onlayn va an'anaviy arbitrajning kombinatsiyasi degan umumiy fikr noto'g'ri hisoblanadi. Bu turdagi arbitraj o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Agar arbitraj onlayn tarzda o'tkazilsa, tomonlar elektron pochta orqali qonunni tanlash masalasini muhokama qilishlari, ular tomonidan raqamli imzolanadigan arbitraj bitimini tuzishlari va arbitraj muhokamasi o'tkaziladigan geografik joylashuvini aniqlashlari, arbitr tomonidan imzolanadigan qarorning joyini belgilash kabi harakatlar onlayn tarzda amalga oshirishlari mumkin. Onlayn arbitraj, ayniqsa tomonlar uzoqda joylashgan joyda qulay va samaralidir. Xususan R.Rajan bu masalada, asosan, "Onlayn Arbitraj onlayn o'zaro munosabatlar va tranzaktsiyalardan kelib chiqadigan nizolar uchun ham, oflayn rejimda yuzaga keladigan nizolar uchun ham ishlatilishi mumkin"⁷ ligini ta'kidlaydi. Biroq, bu, ayniqsa, nizolarni hal

⁵ Gonkong elektron bitim arbitraj qoidalariga qarang. www.hkiac.org/sites/default/files/ck_filebrowser/PDF/arbitration/en_ETArbRules.pdf.

⁶ London International Arbitration Court. (n.d.) Arbitrazhnyy reglament Londonskogo Mezhdunarodnogo treteyskogo suda [Arbitration Rules of the London International Arbitration Court].

[Online] Available from: <http://www.uncitral.org/pdf/russian/texts/arbitration/arb-rules-revised/arbrules-revised-r.pdf>.

⁷ Rajan, R.D. A primer on Alternative Dispute Resolution (ADR), Barathi Law Publications, Tamil Nadu, Newed. 2005, pages. 103-112.

qilish uchun bir xil vosita (Internet)dan foydalanish mumkin bo'lgan va tomonlar ko'pincha bir-biridan uzoqda joylashgan elektron tijorat nizolari uchun ham muamolarni yechishning qulay usuli hisoblanadi. Shuningdek "an'anaviy arbitraj hozir avvalgidek to'liq an'anaviy shaklda emas va xalqaro tijorat nizolarini ko'rishda bir qancha kamchiliklarga ega. Shu sababli, mahalliy va xalqaro tijorat nizolarini ko'rib chiqishda mavjud an'anaviy arbitraj usulini to'ldirish uchun yanada samarali arbitraj usuliga bo'lgan ehtiyoj dolzarb zaruratga aylandi. "Elektron arbitraj ya'ni onlayn arbitraj ushbu ko'zlangan maqsadga erishish uchun dastlabki qadam bo'ladi. Biroq, onlayn arbitraj hali xalqaro darajada tartibga solinmagan degan fikrni ham hisobga olish zarur. Doktrinal huquqiy tadqiqot metodologiyasidan foydalangan holda, ushbu xalqaro konvensiyalar va qonunlarning onlayn arbitrajni rasmiylashtirishning huquqiy imkoniyatlarini o'rganish kerakligiga asosiy e'tibor berilgan"⁸. F. Badieli o'z tadqiqotida "onlayn arbitraj an'anaviy arbitrajdan nafaqat jarayonni onlayn o'tkazilishi mumkinligi, balki uning ta'rifining asosiy elementlari boshqacha bo'lishi bilan farqlanishi"⁹ ga e'tibor beradi. Farqlar onlayn arbitraj ta'rifini o'zgartirishi mumkin, ammo ular onlayn arbitrajning haqiqiylikiga to'sqinlik qilmaydi. Tezlik, foydalanish imkoniyati va iqtisodiy samaradorlik kabi asosiy afzalliklari tufayli onlayn arbitraj juda moslashuvchan yondashuvda aniqlanishi va ishlatilishi mumkin. Chexiyalik tadqiqotchi J. Herbovczkovaning onlayn arbitraj haqidagi fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, o'tgan XX asrning 90-yillarida internet va boshqa aloqa texnologiyalarining katta evolyutsiyasi bo'lgan. Internet tufayli bozorlarda chegaralarning bekor qilinishi elektron tijoratning ulkan rivojlanishiga olib keldi va huquq sohasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi¹⁰. Yangi texnologiyalar huquqiy nizolarning yangi turlarini keltirib chiqardi va an'anaviy nizolarning murakkabligini oshirdi. Boshqa tomondan, u nafaqat bitimlarni, balki undan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishni sezilarli darajada soddalashtirish potensialiga ega bo'lgan yangi vositalarni yaratdi. Ushbu yangi vositalardan foydalanish huquqiy noaniqlik manbai bo'lishi mumkin. T. Schultzning qayd etishicha, hozirda barcha ODR tizimlari rozilik asosida tuzilgan bo'lsa ham ularning hech biri qonun bilan belgilanmagan. Deyarli barcha hollarda rozilik elektron shaklda kiritilgan nizolarni hal qilish qoidalari bilan ifodalanadi. Ushbu bandlar nizodan keyingi kelishuvlar bo'lishi mumkin, ularga havolani ODR veb-saytlarida topish mumkin yoki nizodan oldingi kelishuvlar bo'lishi mumkin, ular tijorat saytlarida joylashtirilgani uchun kamroq tarqalgan va ularni aniqlash qiyinroq¹¹.

Onlayn arbitraj kiborg makondagi nizolarni hal qilishning eng samarali oddiy usuli hisoblanadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, onlayn arbitraj jarayonida kelib chiqadigan ko'plab huquqiy muammolar mavjud, masalan, amaldagi qonunni tanlash, arbitraj kelishuvining talablari, imzo va arbitraj muhokamasi joyi va boshqalar. Onlayn arbitrajning keng tarqalgan elementlari quyidagilardir: Onlayn arbitraj shartnomasi; Arbitraj xarajatlari depozitlari; Onlayn arbitraj jarayonini qabul qilish; Onlayn arbitrajni tayinlash; Da'volar yoki qarshi da'voni rasmiylashtirish; Bahsli masalalarni shakllantirish; Barcha onlayn guvohnomalar orqali dalillarni olib borish; Oflayn holda shaxsan ko'rsatmalarni eshitish (agar ikkala tomon ham rozi bo'lsa); Onlayn arbitraj qarorini chiqarish.

⁸Labanieh, M. F., Hussain, M. A., & Mahdzir, N. (2021). The legal capacity of international conventions and laws to legalise e-arbitration. *Journal of International Studies*, 17, 211-237. <https://doi.org/10.32890>

⁹ Badieli, F., *Online Arbitration Definition and Its Distinctive Features*, Genève, 2010, pages. 2-3.

¹⁰ Herbovczkova, J. *Certain aspects of online arbitration*. Prague, 2008, pages. 1-2.

¹¹ Schultz, Th. *Online Dispute Resolution: The State of the Art and the Issues*. Genève, 2001. pages. 55-70.

Onlayn arbitrajning hozirgi yondashuvi onlayn/kibermakondagi arbitrajdir. Kibermakonga yondashuvning asosiy prinsipi texnologiya yordamida nizolarni hal qilishning yaxshiroq, tezroq va arzonroq usullarini topishdir. ODRga nisbatan sudga oid bo'lmagan ADR yondashuvi asosan muzokaralar va vositachilikka, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni qanday yaxshilashga qaratilgan. Arbitraj yondashuvi nizoni arbitrajning qarori bilan hal qilish uchun huquqlar va qonunlarning qo'llanilishiga urg'u beradi. Agar arbitraj oflayn rejimda yaxshi ishlayotgan bo'lsa, uni onlayn shaklga ham moslashtirish kerak, degan fikr mavjud.

Hozirgi kunda ODRning asosiy ishtirokchilari quyidagilardir: biznes subyektlari, iste'molchilar, hukumat va ADR institutlari. Biznes subyektlari ODRni afzal ko'rishiga asosiy sabab uning yopiq tizimli, tez, ishonchli va arzonligidadir. Hukumat ODRni sudlar hali taqdim eta olmagan adolatga kirishni ta'minlash, sud ishlarida ortiqcha yukni kamaytirish va elektron tijorat iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi sifatida ko'radi. ADR institutlari ODRni raqobatbardosh ustunlikka erishish imkoniyati sifatida ko'rishadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash kelajakda muayyan turdagi nizolarni hal qilishning muhim vositasi sifatida rivojlanmoqda. Onlayn biznes va boshqa aloqalar o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun ODR zarur bo'lgan infratuzilmaning tobora muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xalqaro arbitraj hamjamiyati, UNCITRAL, onlayn arbitrajni bevosita va aniq tartibga solish uchun xalqaro huquqiy bazani ishlab chiqishi kerak. Bu baza "Elektron arbitrajning namunaviy qonuni" deb nomlanishi mumkin. Bu bir qator afzalliklarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, bu xalqaro miqyosda elektron arbitrajni tartibga solish yo'lidagi birinchi qadam bo'ladi. Ikkinchidan, u namunaviy huquq mamlakatlarini uni qabul qilishga undashi mumkin. Uchinchidan, u xalqaro huquqni garmonizatsiya qilish va yagona holda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, "Onlayn nizolarni hal qilish (ODR)" umumiy atamasi xalqaro miqyosda nizolarni ADR usullari yordamida onlayn hal etishning turli shakllari uchun qo'llaniladi. ODR ba'zi nizolarni (aniqrog'i elektron nizolar) Internet orqali tez va yetarli darajada hal qilinishi mumkinligiga asoslanib, mavjud ADR usullarini to'ldiradi. ODRni ADR usullari bilan nizolarni hal qilish uchun ilovalar va kompyuter tarmoqlarini joylashtirish sifatida aniqlash mumkin. Elektron nizolarni ham, an'anaviy nizolarini ham ODR yordamida hal qilish mumkin. Hozirgi vaqtda ODR tizimlarining to'rt turi mavjud:

- Moliyaviy da'volarni avtomatik tarzda hal qilish uchun ekspert tizimidan foydalangan holda onlayn hisob-kitob qilish;
- Internet-arbitraj, malakali hakamlar yordami bilan nizolarni hal qilish uchun veb-saytdan foydalanish;
- Iste'molchilarning ayrim turdagi shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun elektron pochtdan foydalangan holda iste'molchilar shikoyatlarini onlayn hal qilish;
- Onlayn mediatsiya, nizolarni malakali mediatorlar yordamida hal qilish uchun veb-saytdan foydalanish¹².

Bu turdagi ODRlarning barchasi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Onlayn hisob-kitob va onlayn vositachilik hozirgi kunda eng ilg'or hisoblanadi. ODR jarayonlari hujjatlarni elektron tarzda to'ldirishga imkon beradi, bunda taraflar shifrlangan yoki elektron belgilardan

¹² Bakhramova, M. (2022). Onlayn arbitraj faoliyatining huquqiy tartibga solinishi. Journal of innovations in social sciences. 89-94.

foydalanadilar, ular hujjatlarning yaxlitligini va tranzaksiyalarni tasdiqlashni himoya qiladilar. Odatda, taraflar nizolarni onlayn hal qilish jarayoniga murojat qilgan taqdirlarda, xizmat ko'rsatuvchi provayder betaraf arbitrlar yoki arbitrlar kengashini tanlash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arbitraj jarayonlarini raqamlashtirish, arbitraj muhokamalarini onlayn tartibda o'tkazish hamda arbitraj jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanish qator afzalliklarga va kamchiliklarga ega. Xususan, Arbitrajda nizolarni hal qilishda raqamli vositalardan foydalanish odil sudlovni amalga oshirishni kengaytirish uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Bir tomondan, ishni o'tkazib yubormasdan yoki uzoq yo'l uchun xarajat qilmasdan, oson va 24 soat davomida masofaviy aloqa orqali samaradorlik va adolatlilikni oshirish mumkin. Shuningdek, yangi ishlab chiqilgan platformalarda taklif etilayotgan sodda til va individual parametrlar ham tomonlarga o'z huquq va imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish, shuningdek, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini oydinlashtirish imkonini beradi. Bunga qo'shimcha ravishda, oldindan ishlab chiqilgan algoritmik parametrlar va dasturiy ta'minot bilan bog'langan konfiguratsiya qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir noto'g'ri fikrlarni cheklashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulyamov, S., & Yusupov, S. (2022). Issues of Legal Regulation of Robotics in the Form of Artificial Intelligence. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 440-445.
2. Rustambekov, Islambek, and Mokhinur Bakhramova. "Legal Concept and Essence of International Arbitration."
3. Gulyamov Said and Mokhinur Bakhramova. "Digitalization of International Arbitration and Dispute Resolution by Artificial Intelligence." *World Bulletin of Management and Law* 9 (2022): 79-85.
4. Akramov, A., & Kalkonov, R. (2022). Importance of application of unidroit principles in the republic of Uzbekistan and its place in the legislative system. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 287-292.
5. Bakhramova, M. (2022). Legal Regulation of Electronic Arbitration: Recognition and Execution of its Decisions. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 412-415.
6. Bahramovna, B. M. (2022). Raqamli makonda onlayn nizolar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 163-168.
7. Bakhramova, M. (2022). Onlayn arbitraj faoliyatining huquqiy tartibga solinishi. *Journal of innovations in social sciences*. 89-94.
8. Ayelet Sela. The Effect of Online Technologies on Dispute Resolution System Design: Antecedents, Current Trends and Future Directions. *Lewis & Clark Law Review*. 2017. 21 (3), 635-636.
9. Ethan Katsh and Orna Rabinovich-Einy, *Digital Justice: Technology and the Internet of Dispute* (Oxford University Press, 2017), 45-54.
10. Nadja Alexander. *Mobile Mediation: How Technology is Driving the Globalization of ADR*. *Hamline Journal of Public Law and Policy*. 2006. 27 (2) 244-245.

11. Купчина Екатерина Валентиновна. Процессы цифровизации в международном арбитраже: на примере Индонезии. Журнал:Юридическая наука. Москва, 2022.
12. Gauthier Vannieuwnhuysse. Arbitration and New Technologies: Mutual Benefits. Journal of International Arbitration. 2018. 35(1) p. 119–129.
13. Recommendation CM/REC(2007)11 of the committee of ministers to member states on promoting Freedom of expression and information in the new information and communications environment.
14. London International Arbitration Court. (n.d.) Arbitrazhnyy reglament Londonskogo Mezhdunarodnogo treteyskogo suda [Arbitration Rules of the London International Arbitration Court].
15. Rajan, R.D, A primer on Alternative Dispute Resolution (ADR), Barathi Law Publications, Tamil Nadu, Newed. 2005, pages. 103-112.
16. Labanieh, M. F., Hussain, M. A., & Mahdzir, N. (2021). The legal capacity of international conventions and laws to legalise e-arbitration. Journal of International Studies, 17, 211-237. <https://doi.org/10.32890/jis>
17. Badiei, F., Online Arbitration Definition and Its Distinctive Features, Genève, 2010, pages. 2-3.
18. Herboczkova, J. Certain aspects of online arbitration. Prague, 2008, pages. 1-2.
19. Schultz, Th. Online Dispute Resolution: The State of the Art and the Issues. Genève, 2001. pages. 55-70.
20. Labanieh, M. F., Hussain, M. A., & Mahdzir, N. (2021). The legal capacity of international conventions and laws to legalise e-arbitration. Journal of International Studies, 17, 211-237.
21. Badiei, F., Online Arbitration Definition and Its Distinctive Features, Genève, 2010, pages. 2-3.
22. Herboczkova, J. Certain aspects of online arbitration. Prague, 2008, pages. 1-2.
23. Schultz, Th. Online Dispute Resolution: The State of the Art and the Issues. Genève, 2001. pages. 55-70.
24. Gonkong elektron bitim arbitraj qoidalari. www.hkiac.org/sites/default/files/ck_filebrowser/PDF/arbitration/en_ETArbRules.pdf.
25. www.uncitral.org/pdf/russian/texts/arbitration/arb-rules-revised/arbrules-revised-r.pdf.